“ODAM BO‘LISH QIYIN” ASARI TAHLILI

Bozorova Gulruh
Oriental universiteti filologiya fakulteti o‘qituvchisi

Xushvaqtova Latofat
Oriental universiteti filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asari tahlil qilinadi. Asarda yoshlarning ma’naviy-axloqiy iztiroblari, jamiyatdagi murakkab hayot aks etadi. Roman tilining soddaligi, hayotiy haqiqatlarning aks etganligi, voqealarning ijtimoiy muammolar bilan bog‘langanligi bilan ajralib turadi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy kurash, yoshlik, tarbiya, tanlov, obrazlar sitemasi, syujet, badiiy tahlil.*

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekov qalamiga mansub ushbu roman yozuvchining ilk romani bo‘lib 1969-yilda yozilgan. Roman yozuvchining ilk katta romani bo‘lsa-da, yaxshi muvaffaqiyat qozongan va ellik yildan beri qayta-qayta nashr etilmoqda. O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanida hayot, hayotning haqiqatga to‘la nafasi ufurib turadi. Asar tilining soddaligi, voqealarning jonliligi e’tiborga loyiq. Asar real voqealarga asoslanib yozilgandek o‘ziga jalb etadi. Asarda ota-onaga hurmat, qadr-qimmat, odamiylik tuyg‘ulari, yosh qalbning tuyg‘ulari, o‘zbeklarning sodda orzulari va shunga o‘xshash voqealar ibrat qilib yoritib berilgan. Samimiy, mehribon, pok qalbli ijodkorni yodga olar ekan, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G’afurov: “O‘tgan asrning 60-70-yillarida bizda hosil bo‘lgan tassavvurlar yana xayolimda toboro jonlandi. Uning “Odam bo‘lish qiyin” asari kitobxonlar tomonidan talashib- tortishib o‘qilgan”, - deb ta’rif beradi. Ba‘zi ijodkorlar asarni Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” asariga qiyoslab, uni o‘zbek mentaliteti va ijtimoiy ziddiyatlar aks etgan variant deb ta’riflashgan.

O‘tgan asrning ikkinchi yarimida O‘zbek adabiyotida O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romani tug‘ildi. Asarda yosh qalbning tuyg‘ulari, o‘zbeklarning soddaligi va mehribonligi o‘spirin bolaning orzulari va shunga o‘xshash voqelar ibrat qilib olingan. O‘zbekning mehribon va samimiy buvisi Hojar ona (Otinbibi, Zavod aya), doimo halol mehnat qilib traktor haydagan Obid aka, o‘zining jonkuyar mehnati uchun “Qahramon unvoni”ni olgan qishloqni oldi odami Yusuf aka, maktabni oltin medalga bitirgan Abdulla, odobli, chiroyli maktabni a’lo bahoga bitirgan Gulchehra, maktabni yaxshi baholarga bitirsa-da, qishlog‘iga xizmat qilish uchun qolgan Samad, erkin to‘kis hayotda o‘sgan Sayyoraning hayotidan hikoya qiladi. Asar qahromanlari Abdulla, Gulchehra, Samad, Sayyora kabi endigina maktabni bitirgan hayot ostonasida turgan yoshlardir. Ularning har birining o‘z maqsadi va rejalari bor. Lekin bu qahromonlarning bir-biridan farqi ana shu maqsadlariga qanday erishishlaridir.

Abdulla – yaxshi o‘qigan tarbiyali bola, ziyoli oilaning yakka-yu yolg‘iz farzandi. Maktabni oltin medal bilan bitiradi, hammadan yaxshi o‘qishga va birinchi bo‘lishga harakat qiladi. U otasiga o‘xshashni xohlamaydi, to ‘la-to ‘kis hayotda yashagisi keladi, bu esa uni oxir oqibat bitta qizni hayotini barbod qilishiga olib keladi.

Gulchehra – oddiy, samimiy qishloq qizi makatabni a’lo baholarga bitiradi. Shaharda o‘qimoqchi bo‘ladi. Onasining betobligi sababli shaharga ketmaydi. Shunda ham to‘xtab qolmay sirtqi ta’limda o‘qiy boshlaydi. Yoshlikdagi orzusini amalga oshirish uchun qattiq harakat qiladi. Bu ishni amalga oshirmoqchi bo‘lgan kezlari bir yigitga ko‘ngil qo‘yadi, bu esa hayotining barbod bo‘lishiga olib keladi

Abdulla ta’tilda buvsinikiga Mingbuloqqa kelib yurar edi. Tog‘asi ko‘p yillardan beri farzandli bo‘la olmaydi. Abdulla kelgan kuni tog‘asi o‘g‘il farzandli bo‘ladi. Ular bedana ovlash uchun bedazorga boradi. Shu yerda makkajo‘xori ichida yoshlikdagi qadrdon do‘sti Gulchehrani uchratib qoladi. Abdulla shaharga ketguncha Gulchehra bilan ko‘p bora uchrashib turadi. Uni shaharga olib ketishni juda istardi. Lekin Gulchehraning onasi oshqozon saratoni kasaliga chalinganli sababli hamma oilaviy ma’suliyatlar Gulchehra bo‘ynida bo‘lganligi sabab bora olmaydi. Abdulla shaharga qaytib keladi. Uning otasi ham kasal bo‘lib ancha yillardan beri yotib qolgan bo‘ladi. Uning uyiga dadasining do‘sti Tursunboy aka keladi va Moskvada yangi unversitet ochilganligini Abdulla yaxshi o‘qigani uchun shu unveristeda o‘qish kerakligini, uni Sayyora degan qizi bo‘lib, u ham shu universitetga kirganini aytadi. Bunga Abdulla rozi bo‘ladi va ketadi. Shu yil Gulchehraning onasi ham vafot etadi va dadasi boshqa ayolga uylanadi. Abdulla har yili kelib turar ular uchrashib turishardi. Yurakalarida ilk muhabbat tuyg‘ularini his qilishgan edi. Abdulla juda yaxshi o‘qiydi va ko‘p yutuqlarga erishdi. Lekin Gulchehra ham to‘xtab qolmaydi. U yoshligidan me’mor bo‘lishni orzu qiladi, eski qishlog‘ini yangilash uchun astoydil harakat qiladi, uning maketini ham chizadi. Bunga do‘sti Samad yordam beradi. U Toshkentga o‘z loyihasini yuboradi va qabul qilinadi. Abdulla chidan ham samimiy va bilimli yigit edi . Uning shuhratparast bo‘lib qolishiga yoshlikda olga ruhiy zarbasi ta’sir qildi. U otasi mansabidan tushgandan so ‘ng unga ustozlarini muomalasi o ‘zgarib qoladi. Shunda Abdulla inson mansabdor bo‘lsa, uni hurmat qiladi, unga tavallo etishadi, degan fikrga borgan edi.

Hamma ham odam bo‘lib tug‘iladi, lekin odamiylik nomli xislat bor bunga hamma ham erisha olamaydi. Gulchehra bilan orasida nima bo‘lishidan qat’i nazar uni tashlab ketishga haqqi yo‘q edi. Unga umid berdi va va’dasida sodiq tura olmay uni tashlab ketdi. Abdulla Gulchehrani sevar edi. Lekin u boylik, mansabga ega bo‘lish uchun o‘z sevgisidan voz kechishiga majbur qildi. Bu esa uni odamiylik tuyg‘usidan ayirdi.

Asarda Abdullaning otasi G‘ofur aka o‘g‘liga qarama-qarshi obraz, u shuncha mol-dunyo topsa-da uni ehson qildi, dang‘illama uylar solmadi, hammaga ochiq ko‘ngillik bilan yordam beradi. G‘ofur akaning topgan obro‘si moddiy bo‘lmasa-da, odamiylik jihatidan orttirilgan obro ‘si anchagina edi. Abdulla o‘tkinchi mol dunyoga yetishaman deb vijdonni yutqazib qo‘ydi, guldek qizning hayotiga zomin bo‘ldi. Endi uning olim bo‘lishidan biror ma’no bormi?!

Xulosa. O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asari o‘zbek adabiyotidagi ahamiyatli ijtimoiy-psixologik asarlardan biridir. Asarda yoshlarning hayot yo‘li, axloqiy tanlovi, orzu-umidlarining sinovdan o‘tishi mahorat bilan aks etgan. Asarda insoniylik, vijdon, halollik, sadoqat, muhabbatga xiyonat kabi tushunchalar chuqur ochilgan. “Odam bo‘lish qiyin” asari bugungi yoshlar uchun ham dolzarb bo‘lib, har bir insonni o‘z hayotiga nazar solishga, ongli tanlov qilishga undaydi. Muallif ijtimoiy adolatsizlik, mansabparastlik, ikkiyuzlamachilik kabi muammolarni ochiq tasvirlaydi va jamiyatda chinakam odam bo‘lish oson emasligini badiiy vositalar orqali isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 126-bet.
2. Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025. – 240-bet.
3. Tursunova D., Kamolova Z. // Odam bo‘lish qiyin asari haqida. – Sentral Asian Journal of Multidisciplinary Research and management studies. Volume 2, Issue 10 October 2025.

NTRAL ASIAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY
IPLINARY
SEARCH AND MANAGEMENT STUDIES
ACADEMIC BOOK